ANDIJON VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

# ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-MART***

Sanoat statistikasi bo’limi
Tel.: 74-228-30-42

# Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022-yil yanvar-mart)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 10 165,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 141,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,9 %)ni tashkil etdi.







***B***–*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,* ***C****-Ishlab chiqaradigan sanoat* ***D****-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash,* ***E****-Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*







Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o’sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 38,6 % ga, Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda 9,8 % ga o’sish kuzatildi.

Shuningdek, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 7,1 % ga va Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishning 3,1 % o’sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,1 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 947,5 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,9 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 47 697 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 159,8 % ga ko’paygan), 3,7 ming tonna neft (86,6 %), yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi. va 2 813,0 tonna Tozalanmagan paxta yog‘i (183,2 %), 15 356,5 tonna Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (70,2 %), 2 751,6 ming. litr 80 % dan etil spirti (68,6 %), 9,8 tonna Milliy non (yopgan non) (61,6 %) kamayish kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Yengil avtomobillar**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Aroq**




**O‘simlik yog‘i (tozalanmagan)**




**Uzum vinosi**




**Paxtadan yigirilgan ip**






## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** dona | 47 697,0 | 29 839,0 | 17 858 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** t. | 19 562,1 | 15 215,9 | 4 346,2 |
| **Aroq,** ming litr. | 81,0 | 231,8 | -150,8 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** ming t. | 33 874,0 | 34 982,0 | -1 108,0 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** tonna. | 12 774,1 | 13 398,3 | -624,1 |
| **O'simlik yog'i (tozalanmagan), t.** | 453,0 | 1 541,0 | -1 088,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 159,8 % ga ko‘paydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 19 192 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 151,3 %), 6 572 dona “Nexia T-250” (94,5 %), 19 439 dona “Lacetti-Gentra” (231,4 %), 2 494 dona “Spark” (138,6 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*2022- yilning yanvar-mart oyida, dona*



## Ishlab chiqaradigan sanoatda, yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Etil spirti,** *ming l.* | 2 751,6 | 4 009,0 | -1 257,4 |
| **Uzum vinosi,** *ming l.* | 88,4 | 121,5 | -33,1 |
| **Urug'lik paxta chigiti ,** *tonna.* | 2 159,1 | 6 315,0 | -4 155,9 |
| **Paxta linti,** *tonna.* | 1 331,4 | 931,0 | 400,4 |
| **Kalish ,** *ming dona.* | 818,0 | 1 170,0 | -352,0 |

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

*2022- yilning yanvar-mart oylarida*







Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 140,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,4 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oyida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,8 % ga o'sish kuzatildi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 19,6 | 3,1 | 16,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 4,9 | 3,9 | 1,0 |
| Elektr energiyasini sotish bo’yicha xizmatlar, mlrd so’m. | 101,2 | 85,0 | 16,2 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi**

*yil boshidan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2022- yil yanvar-mart | 2021- yil yanvar-mart | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar,** *mlrd.so'm* | 198,5 | 114,1 | 84,4 |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd.so'm* | 4,6 | 2,0 | 2,6 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar-** *mlrd.so'm* | 0,5 | 4,9 | -4,4 |

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 7 432,5 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 157,8 % ga ko'paygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 73,1 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2021- yil yanvar-mart oyida 0,2 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 75,4 % ni, shuningdek, Andijon shahariga 4,8 % ni, Paxtaobod tumani 2,3 % ni, Xo‘jaobod tumanida 4,1 % ni hamda Baliqchi tumani 1,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur'atida viloyat (157,8 %) ga ko‘paygan. Yuqori darajada o'sish ko‘rsatkichi Asaka (182,1 %), Ulug'nor (100,5 %), Paxtaobod (217,5 %), Qo‘rg'ontepa (100,8 %), Baliqchi (109,2 %), tumanlarida hamda Izboskan tumanida (101,1 %) ni qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-mart oyida*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 581,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 15,6 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-mart oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 7 432,5 | 100,0 | 157,8 |
| Andijon shahar | 354,9 | 4,8 | 100,4 |
| Xonobod shahar | 44,3 | 0,6 | 73,7 |
| Andijon | 96,3 | 12,3 | 101,2 |
| Asaka | 5607,3 | 75,4 | 182,1 |
| Baliqchi | 119,2 | 1,6 | 109,2 |
| Buloqboshi | 58,5 | 0,8 | 107,0 |
| Bo’ston | 40,2 | 0,5 | 100,2 |
| Jalaquduq | 111,9 | 1,5 | 100,5 |
| Izboskan | 89,4 | 1,2 | 101,1 |
| Ulug‘nor | 45,6 | 0,6 | 100,5 |
| Marhamat | 77,5 | 1,0 | 129,9 |
| Oltinko’l | 113,7 | 1,5 | 105,6 |
| Paxtaobod | 173,4 | 2,3 | 217,5 |
| Xo’jaobod | 307,1 | 4,1 | 131,0 |
| Shahrixon | 108,0 | 1,5 | 100,3 |
| Qo’rg’ontepa | 85,2 | 1,1 | 100,8 |

## Andijon viloyat hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022-yilning yanvar-mart oyida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 10 165,4 | 100,0 | 141,0 |
| Andijon shahar | 1507,8 | 14,8 | 113,0 |
| Xonobod shahar | 331,4 | 3,3 | 98,5 |
| Andijon | 136,5 | 1,3 | 94,9 |
| Asaka | 5 780,8 | 56,9 | 181,7 |
| Baliqchi | 364,6 | 3,6 | 101,3 |
| Buloqboshi | 66,6 | 0,7 | 98,4 |
| Bo’ston | 83,6 | 0,8 | 95,4 |
| Jalaquduq | 206,1 | 2,0 | 98,3 |
| Izboskan | 197,6 | 1,9 | 98,5 |
| Ulug’nor | 85,7 | 0,8 | 114,5 |
| Marhamat | 146,4 | 1,4 | 108,2 |
| Oltinkol | 180,2 | 1,8 | 95,8 |
| Paxtaobod | 174,3 | 1,7 | 135,1 |
| Xo’jaobod | 353,7 | 3,5 | 114,1 |
| Shahrixon | 254,4 | 2,5 | 110,4 |
| Qo’rg’ontepa | 295,6 | 2,9 | 113,8 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo’rg’ontepa (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 113,8 %), Xo‘jaobod (114,1 %), Andijon sh (113,0 %), Paxtaobod (135,1 %) va Baliqchi (101,3 %), Asaka (181,7 %) Ulug’nor (114,5 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Andijon viloyati jami sanoat**
**mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 56,9 % ni) hamda Andijon shahri (14,8 %), Xonobod shahri (3,3 %), Baliqchi (3,6 %), Qo’rg’ontepa (2,9 %) va Xo’jaobod (3,5 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (0,7 %), Bo’ston (0,8 %) hamda Ulug’nor (0,8 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka (16 961,0 ming so‘m), Xonobod shahar (7 520,2 ming so‘m) va Andijon shahrida (3 187,3 ming so‘m) tuman va shaharlarda o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (3 117,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 279,2 ming so‘m bo’lgan holda, Asaka tumanida 16 451,9 ming so‘mni, Xo’jaobod tumanida 2 682,7 ming so‘mni, Andijon shahrida 772,1 ming so‘mni, Xonobod shahrida 1 005,0 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022-yilning yanvar-mart oyida, ming so'm*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Andijon viloyati | 3 117,3 | 2 279,2 |
| Andijon shahar | 3 187,3 | 772,1 |
| Xonobod shahar | 7 520,2 | 1 005,0 |
| Andijon | 497,3 | 350,7 |
| Asaka | 16 961,0 | 16 451,9 |
| Baliqchi | 1 757,1 | 574,5 |
| Buloqboshi | 452,0 | 397,1 |
| Bo'ston | 1 116,6 | 536,8 |
| Jalaquduq | 1 074,1 | 583,0 |
| Izboskan | 803,1 | 363,3 |
| Ulug'nor | 1 383,9 | 736,2 |
| Marhamat | 817,2 | 432,8 |
| Oltinko'l | 973,1 | 614,3 |
| Paxtaobod | 1 084,4 | 865,6 |
| Xo'jaobod | 3 089,8 | 2 682,7 |
| Shahrixon | 818,6 | 347,6 |
| Qo'rg'ontepa | 1 328,2 | 383,0 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2022-yilning yanvar-mart oyida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 972,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 19,4 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Oltinko‘l (69,7 %), Jalaquduq (70,9 %), Shahrixon (76,6 %), hamda Andijon (78,2 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (2,1 %), Xonobod shahar (30,0 %) va Andijon shaharida (23,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9 512 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2 994 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 22,6 % i) Andijon shahriga, 998 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 819 tasi (8,6 %) Andijon tumaniga, 708 tasi (7,4 %) Shahrixon tumaniga, 538 tasi (5,7 %) Xo’jaobod tumaniga, 449 tasi (4,7 %) Oltinko’l tumanlariga to‘g’ri kelmoqda.




2022-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 266 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 46 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 14,2 %) Andijon shahrida, 28 tasi (16,0 %) Asaka tumanida, 19 tasi (10,2 %) Shahrixon tumanida, 23 tasi (17,0 %) Xo’jaobod tumanida, 31 tasi (17,0 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari**
*2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari. joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (998 ta), Andijon (819 ta), Shahrixon ( 708 ta), Xo’jaobod ( 538 ta ), Oltinko’l ( 449 ta ), Qo’rg’ontepa ( 381 ta) va Izboskan tumanlarida (368 ta) hamda Andijon shaharida (2994 ta) qayd etildi.







2022-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (367 ta), Baliqchi (430 ta), Buloqboshi (287 ta), Marhamat (323 ta), Paxtaobod (295 ta), Bo’ston (210 ta) va Ulug’nor tumanlarida (136 ta) hamda Xonobod shahrida (209 ta) faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar qayd etildi.


**Sanoat statistikasi bo’limi**
*Tel.: (74) 228-30-42*